

RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA ELEKTRON HISOBVARAQ-FAKTURALARNI AHAMIYATI HAMDA TAKOMILLARSHTIRISH YO‘LLARI

Muxammadov Nodir Karimovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasida Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida elektron hisobvara-q-fakturalarni ahamiyati iqtisodiyotni global raqamlashtirish sharoitida soliq qo‘mitasining tadbirkorlarlikni rivojlantirishda, soliqlar turining sonini qisqartirish bo‘yicha bajarilayotgan ishlar, intizomli soliq to‘lovchilar safini kengaytirish bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan. Shuningdek, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida elektron hisobvara-q-fakturalarni faoliyatini yanada takomillashtirish asosida ilg‘or axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash masalalarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: byudjet siyosati, elektron hisobvara-q-fakturalar, soliq ma‘murchiligi, tadbirkorlik sub‘ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, interaktiv xizmat, samaradorlik, raqamli platforma, onlayn nazorat-kassa texnikasi, usullar va vositalar, ilg‘or axborot kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy texnikalar.

Kirish

Soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashishdir. Ma‘lumki bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etish mazkur organlar oldiga qo‘yilgan yangi vazifalarni hal qilish, jumladan soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig‘iluvchanligining oshirilishini ta‘minlash maqsadida zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, byudjet daromad manbaini kengaytirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Tahlil va natijalar muhokamasi

Bugungi kunda shakllangan davlat soliq xizmati organlarida AKTni joriy etish tuzilmasi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning yaxlit tizimiga, qo'yilishi mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlash va ularning nazoratini kengaytirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, raqamli iqtisodiyot yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini belgilovchi omillardan biridir. Soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etish mazkur organlar oldiga qo'yilgan yangi vazifalarni hal qilish, jumladan soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig'iluvchanligining oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3802-son qarori qabul qilingan. Soliq to'lovlarining o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash, ma'muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga byudjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish maqsadida elektron hisobvara-fakturalarni hisobga olish va onlayn nazorat-kassa mashinalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni qo'llayotgan soliq to'lovchilarning qamrab olinishi belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrda "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 807-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hududida 2018 yil 15 oktyabrdan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan elektron hisobvara-fakturalarni majburiy tartibda rasmiylashtirishni joriy etish bo'yicha eksperiment o'tkazildi. Eksperiment tarzda 2019 yilning 1 fevraliga qadar muvoffaqqiyatli amalga oshirilib yanada takomillashtirishi belgilandi.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan elektron hisobvara-fakturalardan foydalanishni joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyunda "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 522-



sonli qarorini qabul qildi. Mazkur qaror bilan elektron hujjat aylanish tizimi, ishtirokchilari va ularning majburiyatlari belgilab berildi va respublika hududida 2019 yil 1 iyuldan boshlab ixtiyoriy ravishda, 2020 yil 1 yanvardan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun hisobvara-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va hisobini yuritish tizimini majburiy tartibda joriy etishi belgilab berildi.

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar" ilmiy axborot markazi" davlat unitar korxonasini elektron hisobvara-fakturalarni markazlashtirilgan holda saqlash, operatorlararo uzatish va hisobini yuritish bo'yicha vakolatli rouming operatori etib belgilandi. Qaror bilan elektron hisobvara-faktura aylanish tizimida tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, rouming operatori, operatorlar va vakolatli davlat organlarining elektron hisobvara-fakturalarni taqdim etish, qabul qilish, saqlash va ulardan foydalanish doirasidagi o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydigan "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-fakturalardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanib, amaliyotga qabul qilindi.

Shuningdek, qaror bilan Davlat soliq qo'mitasining integratsiyalashtirilgan yagona axborot-resurs bazasining hisoblash quvvatini kengaytirish uchun zarur server va telekommunikatsiya qurilmalari olinishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 avgustdagi 489-son qarorining 2-ilovasiga muvofiq "Hisobvara-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Nizom hisobvara-fakturalarning shakllari va ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibini belgilaydigan asosiy hujjat sifatida qabul qilindi. Bu me'yor O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 47-moddasi bilan mustahkam belgilab qo'yilgan.

Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish va soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni liberallashtirish orqali ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, shuningdek, tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita o'rganish hamda tadbirkorlikni kelgusida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha 2021 yil 20 avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 sentyabrda "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6307-sonli



Farmonlari qabul qilindi. Ushbu Farmon doirasida qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va aylanmadan olinadigan soliqni — elektron hisobvaraqa-faktura va onlayn nazorat-kassa texnikasi ma‘lumotlari hamda soliq organlarida mavjud boshqa ma‘lumotlar asosida hisoblab chiqaradi va soliq hisobotini shakllantirilishi belgilangan. Shu bilan birga farmonning 4 – bandida soliq to‘lovchilarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash uchun zarur bo‘lgan soliq solish ob‘ekti yoki soliq solish bilan bog‘liq boshqa ob‘ektlarni elektron hisobvaraqa-fakturalarda aks ettirish imkoniyatlarini yaratish belgilangan. Bundan tashqari, Farmonda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida Vazirlar Mahkasining 2022 yil 22 avgustda “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarining ma‘lumotlar bazasidan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 471-sonli qarori tasdiqlandi. Mazkur qarorning 10-bandi bilan soliq to‘lovchilarning topshirishi shart bo‘lgan hisobotlarini avtomatlashtirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo yuqorida keltirilgan me‘yoriy hujjatlarning o‘zaro mutanosibligiga qaramasdan bazi kamchiliklar mavjud, ya‘ni soliq hisobotlarida aks ettiriladigan elektron hisobvaraqa-fakturalarning holati belgilab berilmagan. Elektron hisobvaraqa-fakturalar quyidagi holatlarda bo‘lishi mumkin:

- Qoralama(kod raqami -1);
- Yuborilgan(kod raqami -10);
- Kontragent imzosini kutmoqda (kod raqami -15);
- Bekor qilingan (sotuvchi tomonidan) (kod raqami -17);
- Rad etilgan (xaridor tomonidan) (kod raqami – 20)
- Qabul qilingan (kod raqami 30);
- Haqiqiy emas deb topilgan (kod raqami -40);
- DSQ tomonidan bekor qilingan (kod raqami 50).

Yuqorida keltirilgan elektron hisobvaraqa – fakturalarning qaysi holati hisobotda aks ettirilishi kerakligi huquqiy tomondan belgilab berilmagan. Bu kamchilikni oldini olish uchun Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 avgustdagi 489-son qarorining 2-ilovasiga qo‘shimcha kiritish taklif etilgan. Keltirilgan taklif amalga oshirilsa, soliq to‘lovchilar bilan bo‘lishi mumkin bo‘lgan sud holatlari oldi olinadi va sudlarda asos sifatida me‘yordan foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Elektron hisobvaraqa - fakturalar tizimi joriy qilingandan boshlab quyidagi miqdorda soliq to‘lovchilar va hujjatlar rasmiylashtirilgan.

1-jadval¹.

Elektron hisobvara-q-fakturalar va soliq to'lovchilar dinamikasi tahlili.

T/R	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
Sotuvchilar soni	4 398	30 600	284 363	329 891	285 787
EHF soni	34 374	982 756	23 569 604	33 801 546	38 668 672

Izoh: Keltirilgan jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar elektron hisobvara-q - fakturalarni 10-15-30 holatlari olingan va sotuvchilar soni ko'rsatilgan.

Mazkur keltirilgan 1-jadval ma'lumotlardan soliq to'lovchilar tomonidan rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-q-fakturalar soni o'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

Hisobvara-q-fakturalar elektron shaklda rasmiylashtirilganda bir qator qulayliklar vujudga keladi:

Birinchidan, qog'oz tejaladi;

Ikkinchmdan, kur'er xarajatlari tejab qolinadi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Tosh: G'.G'ulom 2020.- 640 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.
3. Normurzaev U. X Soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash siyosati // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2020. №4 (136). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/soli-imtiyozlari-or-ali-i-tisodiyot-tarmo-lari-amda-so-alarida-tizimli-tarkibiy-islo-otlarni-llab-uvvatlash-siyosati> (data obraçeniya: 17.01.2023).

¹ Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.